

AUDITORIYA MASHG'ULOTLARIDA BO'LAJAK REJISSLARNING KASBIY

KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

METHODS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS IN AUDITION TRAINING ON THE BASE OF LITERARY WORKS

Mamatkasimov Jahangir Abirkulovich, Associate Professor of
Uzbekistan State Institute of arts and culture, Doctor of
Philosophy (PhD) in the field of Pedagogical sciences

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЁРОВ НА АУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ НА ОСНОВЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Маматкасимов Джахангир Абиркулович, доцент
государственного института искусства и культуры
Узбекистана, доктор философии в области педагогических
наук (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada auditoriya mashg'ulotlarida bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish usullari tadqiq etilgan bo'lib, bunda trening mashqlari, drabbllar, etyudlar, dramatik parchalar va dramatik asarlar asosida bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: rejissor, kasbiy kompetentlik, usul, etyud, drabbl, dramatik parcha, dramatik asar, rejissura, adabiy asar.

Abstract: In this article, the methods of developing the professional competence of future directors based on literary works in audience training are researched, in which the methods of developing the professional competence of future directors based on training exercises, on the basis of drabbles, on the basis of etudes, on the basis of dramatic fragments, on the basis of dramatic works are highlighted.

Key words: director, professional competence, method, etude, drabble, dramatic fragment, dramatic work, directing, literary work.

Аннотация: В данной статье исследуются методы развития профессиональной компетентности будущих режиссеров на основе литературных произведений в обучении аудитории, в которой методы развития профессиональной компетентности будущих режиссеров на основе учебных упражнений, драбблов, этюдов, драматических фрагментов, драматических произведений.

Ключевые слова: режиссер, профессиональная компетентность, метод, этюд, драббл, драматический фрагмент, драматическое произведение, режиссура, литературное произведение.

<https://orcid.org/0009-0008-5814-8258>

e-mail:
jahongir.80@mail.ru

KIRISH. Talaba-yoshlarga sifatli va samarali ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun hozirda Respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalarida yetarlicha shart-sharoit yaratilgan va bu jarayon yanada rivojlanib bormoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonining tubdan isloh etilishi va xalqaro standartlar asosida takomillashuvni san’at ta’limi, xususan bo‘lajak rejissorlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatib, malakali rejissorlarni tayyorlash bilan birligida yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish kabi muhim vazifalarga qaratilgan.

Shu jumladan, bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda auditoriya mashg‘ulotlari asosiy lokomotiv xarakterga ega bo‘lib, auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘ziga xos pedagogik va kasbiy jarayonlardan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Tadqiqotchi Q.B.Panjiyev bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini auditoriya mashg‘ulotlari orqali takomillashtirishning pedagogik va kasbiy metod va texnologiyalarini hamda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish vositalarini ishlab chiqqan [6]. M.I.Tashpulatova darslarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi masalalarni yechish metodikasini [9], Sh.A.Akromova bo‘lajak bojxona xodimida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning shakllari sifatida auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllar va ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash jarayonini tadqiq etgan [3].

Tadqiqotchi Sh.N.Taylakova dars jarayonlarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda o‘qituvchi ko‘rsatuvlardan dars mavzusiga mos epizodik lavhalar, kichik syujetlardan (videolektoriy) mashg‘ulotda foydalanishi va o‘quvchilarni mushohadaga chorlashi, mediamateriallar vositasida ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini [8], B.Mirkomilov tomonidan auditoriya mashg‘ulotlari asosida talabalarning badiiy qadriyatlar (rangtasvir, qalamtasvir,

me’morchilik va b.)ga qiziqishini rivojlantirishning mezonlari va ko‘rsatkichlari tarixiy-madaniy merosning estetik, kulturologik va ijtimoiy ahamiyatining funksional va emotsiyonal xususiyatlarini aks ettiruvchi badiiy obrazlarning milliy va umummadaniy tuzilmaviy kompetensiyalari takomillashtirilgan [5].

Rejissura sohasi bo‘yicha bir qator tadqiqotchilar B.S.Sayfullayev [7], F.E.Ahmedov [2], J.O.Mahmudov [4], M.Abdullayeva [1] o‘z ishlarida rejissura fanini o‘qitish metodikasi, mutaxassislik darslariga talabalarning tashkiliy tayyorgarligi, san’at ta’limi spetsifikasi, pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarining rejissorlarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish masalalarini yoritishgan.

MUHOKAMA. Rejissura san’atida auditoriyalar ijodiy ustaxona deb yurilib, bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘ziga xos ijodiy laboratoriadir. Ijodiy ustaxonalar ma’ruza, amaliy, individual mashg‘ulotlarni olib borish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, smart doska, repititsiya uchun sahna va talabalar uchun maxsus taburetkalar, grim va kiyinish xonalari bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak rejissorlarni tayyorlashda e’tibor beriladigan muhim jarayon bu talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish masalasi bo‘lib, badiiy tafakkur bu mutolaasida rivojlanadigan hodisadir. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida aniqlandi, talabalar badiiy tafakkurining rivojlanishida badiiy asar mutolaasi eng sinalgan va samarali usul bo‘lib, aslida rejissura – bu badiiy adabiyotning sahnadagi aksi demakdir.

Demak, badiiy adabiyot mutolaasisiz rejissorlarni tarbiyalab bo‘lmaydi, hattoki tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rejissoring dastlabki quroli bu adabiyot, ya’ni dramaturgiya. Rejissor yangi spektakl ustida ish boshlar ekan, dastlabki jarayon pyesa bilan tanishish, uni o‘qib tahlil qilishdan boshlanadi. Bu jarayon rejissordan o‘ziga yarasha bilim va tafakkur talab etadi. Ana shu bilim va tafakkur bo‘lajak rejissorlarni o‘qitish jarayonida mustahkamlanishi va rivojlantirilishi lozimdir.

Tadqiqotimiz maqsadi ham bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar mutolaasi orqali rivojlantirish bo‘lib, amaldagi metodikani takomillashtirishga qaratilgan.

NATIJALAR. Auditoriya mashg‘ulotlarini eng oddiy vazifalardan, ya’ni trening mashqlarini adabiy asarlar mazmunida olib borilishiga e’tibor qaratamiz.

Trening mashqlari asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari. Trening mashqlari maxsus ijodiy ustaxonalarda o‘tkazilishi lozim bo‘lib, bunda barcha talabalar mutaxassislik libosida bo‘lishi talab etiladi. Kurs badiiy rahbari dars jarayonida talabalarga umumiy yoki yakka tartibda ularning individual xususiyatini hisobga olib turli mashqlar berishi mumkin. Masalan, talabaning tasavvurini rivojlantirish uchun bir talabani sahnaga chiqarib, faraz shaklida: uning keng dalada ketayotganligi, oldidan to‘satdan baland tilk jarlik chiqib qolganini vazifa qilib berishi va talabaning o’sha sharoitda o‘zini qanday tutishi kerakligi bo‘yicha mashqlar o‘tkazishi, yoki sahnaga chizilgan to‘g‘ri chiziqni osmondagи dor sifatida faraz qilib, undan yurib o‘tishni, ariqdan sakrashni va shu kabi mashqlarni berib, talabalarning tasavvurini boyitishi mumkin.

Tadqiqot vazifasi adabiy asarlar asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilganligi bois trening mashqlari ham shu vazifaga xizmat qilishi lozim.

Drabbl asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari. Drabbl asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish amaliyoti pedagogik-tajriba sinov jarayonida ilk marotaba tatbiq etilgan bo‘lib, drabbl hajm jihatdan kichik bo‘lsa-da, lekin unda katta ma’no yashiringanligi bilan talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Talaba drabbl bilan tanishar ekan, unda yashiringan tub ma’noni topishi birinchi talabdir. Qayd etib o‘tish lozimki, talaba tomonidan o‘qilayotgan har bir adabiy asar sahnalashtirilishi uchun mutolaa qilinadi va shu maqsadda sahnalashtirish rejasi tuziladi.

Bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda aforizmlardan foydalanish ham samarali usuldir. Ayniqsa aforizm san’at, xususan sahma san’ati, rejissorlik yoki aktyorlik san’ati bilan bog‘liq bo‘lsa, bu talabalarning qiziqishi yanada oshishini ta’minlaydi. Aforizm asosida kichik sahnalar ishslash va albatta aforizmdagi tub ma’noga e’tiborni qaratish, aforizmning mazmun-mohiyatini tushunish

talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Etyudlar uchun adabiy asar tanlash asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari. Etyudlar ustida ishslash orqali bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligi, ijodiy va badiiy tafakkurini rivojlantirish teatr reformatori K.S.Stanislavskiyning “agarda”, “berilgan shart-sharoitda” ta’limotiga asoslanib bajarilgan dastlabki ijodiy jarayon bo‘lib, o‘z nazariyasi va amaliyotiga, o‘qitish metodikasiga ega pedagogik jarayondir.

Etyudlar ustida ishslashda (bir kishilik, juft, ommaviy etyudlar) talabalar oldida yangi murakkab vazifalar paydo bo‘ladi. Bu jarayonda ijodning barcha elementlarigina emas, balki soha bo‘yicha olingan ilk bilimlar mustahkamlanib, keyingi bosqich uchun asos bo‘ladi.

Etyud sahnalashtirish jarayonida talaba bo‘lajak rejissor sifatida ilk marotaba adabiy asar bilan ishslashiga to‘g‘ri keladi. Shu sabab talaba adabiy asar tanlashda kurs badiiy rahbarining nazoratida bo‘lishi lozim. Kurs badiiy rahbari tomonidan ma’ruza mashg‘ulotlarida etyudlar dramaturgiysi bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berilishi, amaliy mashg‘ulotlarda etyudlar uchun adabiy asar tanlash yuzasidan metodik tavsiyalar berilishi va amaliy misollar asosida tushuncha berilishi lozim.

Etyud ustida amaliy ish olib borganda, uning ma’nosи yaxshilab o‘rganilib, harakatga yetaklovchi sharoitni to‘g‘ri yo‘naltirib, harakat orqali har qanday vujudga kelgan savolga javob bera olish kerak. Yetakchi xatti-harakat yo‘nalishini sezish, uni vujudga keltiradigan bo‘laklarni bo‘lishni o‘rganish uchun, ish jarayonida voqeadan voqeaga o‘tishdagi sahnaviy harakat rivoji yo‘nalishini ko‘p marotaba tahlil qilish lozim.

Dramatik parchalar asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari. Bo‘lajak rejissorlarni tayyorlashda ikkinchi kursdan boshlab bevosita dramatik asarlar ustida ishlanib, mazkur jarayon eng mas’uliyatlari va murakkab bo‘lib, talabalar dramatik shart-sharoit, ziddiyat va dramatik xatti-harakat jarayonlariga duch keladi. Xarakter va xarakterlilik, obraz va obrazlilik masalalari chuqur tahlil etilib, unga erishish jarayonlari mustahkamlanadi.

Dramatik asarlar ustida ishslash ikki bosqichli jarayon bo‘lib, birinchi bosqichda talabalar bevosita

dramatik parchalar ustida, ikkinchi bochqichda aynan dramatik asar ustida ish olib borishadi. Dramatik parchalar o‘z tuguni, yechimi va rivojiga ega mustaqil ish manbai bo‘lib, muallif tomonidan berilgan shart-sharoitda personajning qilmishi, fe'l-atvorini his etgan holda “men – talaba nima demoqchiman?” degan maqsadga binoan harakat qilmog‘i tavsiya etiladi.

Dramatik parchalar ustida ishslash eng avvalo kurs talabalarining ijodiy imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda adabiy asar, ya’ni repertuar tanlashdan boshlanadi. To‘g‘ri tanlangan repertuar eng avvalo to‘g‘ri ta’lim-tarbiyaning kafolati bo‘lib, talabalarga teatr san’ati maktabi an’alarini o‘rgatishga asos bo‘ladi. Teatr san’atida repertuar bu – ta’lim-tarbiyaning badiiy qurolidir. Shu sababli kurs badiiy rahbari repertuar tanlash jarayonini kuchli nazoratga olishi va repertuar tanlash yuzasidan talabalarga metodik tavsiyalar berib borishi lozim.

Dramatik asarlar asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari. Rejissorlik san’atini professional nuqtayi nazardan egallah, o‘zlashtirish, bu sohaning mas’uliyati va mashaqqatini talabaga singdirishda dramatik asarlar ustida ishslash ahamiyatli bo‘lib, talaba bu jarayonda to‘laqonli spektaklda ishtirok etadi. Spektakl dramatik asarning sahnaviy – badiiy ifodasidir. Uni yaratishda pyesaning badiiy va g‘oyaviy mazmuni katta ahamiyatga ega. Chunki spektakl yaratishda rejissor ijodini to‘lqinlantiruvchi, sahnaviy rejani barpo etuvchi, aniq va yorqin sahnalashtirish tizimini vujudga kelishiga sababchi pyesadir.

XULOSA. Bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda auditoriya mashg‘ulotlarini trening mashqlari, drabbl, etyud, dramatik parcha, dramatik asar asosida ishslash usullari ishlab chiqilgan, amaliyotdagi o‘qitish metodikasi bilan qiyosiy tahlil etilgan, samarali mexanizmi tavsiya etilgan. Dramatik asarlar asosida bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni eng murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, bu borada

Ustoz-shogird an’analari asosida ish olib borish samaralidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva M. Rejissura. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 176 b.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
3. Akromova SH.A. Bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish. Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent: Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, 2017. – 69 b.
4. Mahmudov J. Rejissura tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va poligraf, 2020. – 212 b.
5. Mirkomilov B. Talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish (jahon tarixi misolida): Avteref. diss. ... ped. fan. dok. – Toshkent: Jizzax davlat pedagogika instituti. 2019. – 59 b.
6. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishchiligi vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Diss. ... ped. fan. dok. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2022. – 291 b.
7. Sayfullayev B. va boshq. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
8. Taylakova SH.N. O‘quvchi–yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish (teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va internet xabarları misolida): Avtoref. dis. ... ped. fan. fal. dok. – Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2018. – 51 b.
9. Toshpulatova M.I. Darslarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi masalalarni yechish metodikasi // Mug‘allim həm Uzluksiz bilimlendirio’. – Nekis. – 2009. – № 4. – B. 57-59.

